

DEPUTATNING SAYLOVCHILAR BILAN UCHRASHUVI



Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi 3-Mustaqillik saylov okrugidan saylangan deputat Turopova Dilbar Toji qizi mahalla yettiligi hamkorligida Oltinsoy tumanidagi “Mustaqillik 10-yilligi” va “Qurama 1” mahallalarida saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Uchrashuv davomida mahalla fuqarolari tomonidan ko‘tarilgan muammolar ichki ko‘chalarni asfaltlash va avtobus to‘xtash uchun shox bekatlar qurish kabi masalalar muhokama qilindi.

Deputat tomonidan uchrashuvdagi mahalla fuqarolari tomonidan ko‘tarilgan muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rildi hamda tegishli korxona va tashkilotlarga so‘rovnomalar yuborishga kelishib olindi.